O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2026, [14]
ISSN 2181-7324(Print)

IJTIMOIY FANLAR
http://journals.nuu.uz
ISSN 3093-8996(Onlayn)

Shahina N.JO‘RAYEVA,
PhD, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Toshkent, O‘zbekiston
E-mail: Shahrus8689@gmail.com, ORCID: 0009-0002-4068-9095

Professor, f.f.d A.Qodirov taqrizi asosida

BMTNING GLOBAL EKOLOGIK SIYOSATDAGI ROLI - ZAMONAVIY CHAQIRIQLAR VA INSTITUTSIONAL IMKONIYATLAR

Annotatsiya

Mazkur maqolada Birlashgan Millatlar Tashkilotining global ekologik siyosat va boshqaruv tizimidagi o‘rni, institutsional imkoniyatlari hamda zamonaviy ekologik chaqiriqlarga javob berish mexanizmlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda BMTning ekologik siyosatining shakllanish va rivojlanish bosqichlari, BMT Atrof-muhit dasturi (UNEP) faoliyati, xalqaro ekologik boshqaruvning institutsional fragmentatsiyasi hamda Kioto protokoli va Parij kelishuvining o‘ziga xos jihatlari qiyosiy tahlil qilinadi. Shuningdek, Barqaror rivojlanish maqsadlari, ekologik huquqning xalqaro darajada mustahkamlanishi va davlatlarning ekologik majburiyatlarini kuchaytirish jarayonlari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: BMT, global ekologik siyosat, global ekologik boshqaruv, UNEP, institutsional fragmentatsiya, iqlim o‘zgarishi, Parij kelishuvi, barqaror rivojlanish, ekologik huquq, Orolbo‘yi.

РОЛЬ ООН В ГЛОБАЛЬНОЙ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ ПОЛИТИКЕ: СОВРЕМЕННЫЕ ВЫЗОВЫ И ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ ВОЗМОЖНОСТИ

Аннотация

В статье анализируются роль Организации Объединённых Наций в системе глобальной экологической политики и управления, её институциональные возможности и механизмы реагирования на современные экологические вызовы. Рассматриваются основные этапы формирования и развития экологической политики ООН, деятельность Программы ООН по окружающей среде (ЮНЕП), институциональная фрагментация глобального экологического управления, а также особенности Киотского протокола и Парижского соглашения. Особое внимание уделяется Целям устойчивого развития, укреплению международно-правовых основ экологических прав и процессам усиления экологических обязательств государств.

Ключевые слова: ООН, глобальная экологическая политика, глобальное экологическое управление, ЮНЕП, институциональная фрагментация, изменение климата, Парижское соглашение, устойчивое развитие, экологическое право, Приаралье.

THE ROLE OF THE UN IN GLOBAL ENVIRONMENTAL POLICY: CONTEMPORARY CHALLENGES AND INSTITUTIONAL CAPACITIES

Annotation

This article examines the role of the United Nations in global environmental policy and governance, its institutional capacities, and mechanisms for responding to contemporary environmental challenges. The study analyzes the main stages of the formation and development of UN environmental policy, the activities of the United Nations Environment Programme (UNEP), institutional fragmentation in global environmental governance, and the specific features of the Kyoto Protocol and the Paris Agreement. Particular attention is given to the Sustainable Development Goals, the strengthening of the international legal foundations of environmental rights, and efforts to reinforce states’ environmental commitments.

Key words: United Nations, global environmental policy, global environmental governance, UNEP, institutional fragmentation, climate change, Paris Agreement, sustainable development, environmental law, Aral Sea region.

Kirish. XXI asrda ekologik muammolar milliy chegaralardan chiqib, butun insoniyat taqdiriga daxldor bo‘lgan global xavfsizlik masalasiga aylandi. Iqlim o‘zgarishi, biologik xilma-xillikning qisqarishi, cho‘llanish, suv tanqisligi va atmosfera ifloslanishi bugungi kunda davlatlarning iqtisodiy barqarorligi, ekologik xavfsizligi va aholi salomatligiga bevosita tahdid solmoqda. Mazkur muammolarning transchegaraviy xususiyati ularni alohida davlatlar tomonidan yakka tartibda samarali hal etish imkoniyatlarini cheklab, xalqaro hamkorlikni muvofiqlashtiruvchi institutlarga bo‘lgan ehtiyojni kuchaytirmoqda. Shu nuqtayi nazardan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti global ekologik boshqaruvning muhim institutsional va muvofiqlashtiruvchi platformalaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda.

BMTning ekologik siyosatdagi faoliyati 1972-yil Stokgolmda o‘tkazilgan Inson atrof-muhitiga bag‘ishlangan BMT konferensiyasidan keyin yangi institutsional bosqichga ko‘tarildi. Aynan shu jarayon natijasida BMT Bosh Assambleyasining 1972-yildagi 2997 (XXVII)-rezolyutsiyasi asosida BMT Atrof-muhit dasturi (UNEP) tashkil etildi. Mazkur institut global ekologik masalalarni xalqaro kun tartibida shakllantirish, davlatlar o‘rtasidagi hamkorlikni muvofiqlashtirish va ekologik siyosatni rivojlantirishda muhim rol o‘ynab kelmoqda.

1992-yilda Rio-de-Janeyro shahrida o‘tkazilgan BMTning Atrof-muhit va rivojlanish bo‘yicha konferensiyasi global ekologik siyosatning keyingi rivojlanishida muhim burilish yasadi. Mazkur konferensiya doirasida barqaror rivojlanish konsepsiyasi xalqaro kun tartibining markaziy yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Rio jarayoni doirasida Iqlim o‘zgarishi to‘g‘risidagi BMT doiraviy konvensiyasi (UNFCCC) va Biologik xilma-xillik to‘g‘risidagi konvensiya qabul qilindi. Cho‘llanishga qarshi kurash bo‘yicha BMT konvensiyasi (UNCCD) esa Rio jarayonining mantiqiy davomi sifatida 1994-yilda qabul qilindi. Keyingi davrda 1997-yilgi Kioto protokoli, 2015-yilgi Parij kelishuvi hamda BMTning 2030-yilgacha bo‘lgan Barqaror rivojlanish kun tartibi global ekologik va iqlim siyosatining muhim xalqaro mexanizmlariga aylandi. Shu bilan birga, BMT doirasidagi global ekologik boshqaruv tizimi qator institutsional va siyosiy muammolarga duch kelmoqda. Xususan, xalqaro ekologik kelishuvlarda belgilangan ayrim majburiyatlarning bajarilishini ta’minlash bo‘yicha kuchli majburlov va sanksiya mexanizmlarining cheklanganligi davlatlar tomonidan qabul qilingan majburiyatlarning amaliy ijrosiga ta’sir

ko‘rsatishi mumkin. Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o‘rtasida “umumiy, ammo tabaqalashtirilgan javobgarlik va tegishli imkoniyatlar” tamoyilini amalga oshirish, iqlim moliyasini shakllantirish va tarixiy emissiyalar uchun mas’uliyat masalalarida mavjud kelishmovchiliklar xalqaro muzokaralar jarayonini murakkablashtirmoqda. Bundan tashqari, global ekologik boshqaruvda turli xalqaro tashkilotlar, dastUrlar, konvensiyalar va fondlarning parallel faoliyat yuritishi institutsional fragmentatsiya va vakolatlarning qisman takrorlanishi muammosini yuzaga keltirmoqda.

Mazkur muammolar Markaziy Osiyo, xususan, O‘zbekiston uchun ham alohida dolzarblik kasb etadi. Mintaqadagi Orol dengizi fojiasi, transchegaraviy suv resurslaridan foydalanish, cho‘llanish, suv tanqisligi va iqlim o‘zgarishining ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari xalqaro va mintaqaviy hamkorlikni yanada chuqUrlashtirishni taqozo etmoqda. Shu jihatdan, BMTning Orolbo‘yi mintaqasidagi ekologik va ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etishga qaratilgan tashabbuslari alohida ahamiyatga ega. Jumladan, BMT Bosh Assambleyasining 2021-yil 18-maydagi rezolyutsiyasi bilan Orolbo‘yi hududi “ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar zonasi” deb e’lon qilindi. Mazkur tashabbus mintaqadagi ekologik muammolarni innovatsion texnologiyalar, ilmiy salohiyat va xalqaro hamkorlik asosida hal etishga qaratilgan yondashuvlarni qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiladi.

BMTning global ekologik siyosat va boshqaruv tizimidagi rolini, uning institutsional imkoniyatlari hamda mavjud cheklovlarini ilmiy jihatdan tahlil qilish dolzarb vazifalardan biridir. BMT ekologik boshqaruvning yagona instituti bo‘lmasa-da, xalqaro ekologik kelishuvlarni ishlab chiqish, davlatlar o‘rtasidagi hamkorlikni muvofiqlashtirish, ekologik muammolarni global siyosiy kun tartibiga olib chiqish va barqaror rivojlanish tamoyillarini ilgari surishda muhim platforma hisoblanadi. Ushbu ilmiy maqolaning maqsadi BMTning global ekologik boshqaruv tizimidagi o‘rnini baholash, zamonaviy ekologik va institutsional chaqiriqlarni aniqlash hamda uning faoliyati samaradorligini oshirishning istiqbolli yo‘nalishlarini asoslab berishdan iboratdir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Global ekologik siyosat va BMTning ushbu yo‘nalishdagi faoliyatiga oid adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, mazkur masala xalqaro-huquqiy, institutsional va siyosiy jihatdan keng o‘rganilgan. Xususan, 1972-yilgi Stokgolm deklaratsiyasi [1], BMT Bosh Assambleyasining 2997 (XXVII)-rezolyutsiyasi [2], 1992-yilgi Rio deklaratsiyasi [3], UNFCCC [4] va Biologik xilma-xillik to‘g‘risidagi konvensiya [5] global ekologik boshqaruvning normativ-institutsional asoslarini shakllantirgan. Kioto protokoli [6] va Parij kelishuvi [7] esa iqlim siyosatining xalqaro mexanizmlarini takomillashtirgan bo‘lsa, 2030-yilgacha bo‘lgan Kun tartibi [9], Kunming-Monreal global bioxilma-xillik doirasi [10] va A/RES/76/300-rezolyutsiyasi [11] ekologik xavfsizlik va barqaror rivojlanish masalalarini yanada kengaytirdi.

Ilmiy adabiyotlarda BMT Atrof-muhit dasturining (UNEP) institutsional imkoniyatlari va cheklovlari ham alohida tadqiq etilgan. M. Ivanova [13; 14] UNEPning institutsional rivojlanishi va global ekologik boshqaruvdagi rolini tahlil qilgan bo‘lsa, F. Biermann va S. Bauer [15] global ekologik boshqaruv samaradorligini oshirishning institutsional modellarini taklif etadi. Biermann va hammualliflar [16], Zelli va van Asselt [17] ekologik boshqaruvdagi institutsional fragmentatsiya muammosini, Keohane va Victor [18] esa iqlim siyosatidagi “rejimlar kompleksi”ni tahlil qiladi. Abbott [19] ushbu jarayonda transmilliy va nodavlat aktorlarning rolini ham hisobga olish zarUrligini asoslaydi.

Parij kelishuvi bo‘yicha tadqiqotlarda uning moslashuvchan, milliy hissalarga asoslangan boshqaruv modeli [20], huquqiy xususiyatlari [21], muzokara jarayoni [22] va nodavlat aktorlarning roli [23] keng yoritilgan. Rogelj va hammualliflar [24] esa mavjud iqlim majburiyatlari global harorat o‘sishini cheklash maqsadlariga erishish uchun yetarli emasligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, Rockström va hammualliflarning “sayyoraviy chegaralar” konsepsiyasi [25], Biermann, Kanie va Kimning “maqsadlar orqali boshqaruv” yondashuvi hamda Kim va Bosselmanning xalqaro ekologik kelishuvlarni uyg‘unlashtirishga oid qarashlari global ekologik boshqaruvning nazariy asoslarini boyitgan.

Markaziy Osiyo ekologik muammolari, xususan, Orol dengizi inqirozi ham xalqaro tadqiqotlarda muhim o‘rin egallaydi. Micklin Orol fojiasining ekologik va ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini kompleks tahlil qilgan. BMT Bosh Assambleyasining A/RES/75/278-rezolyutsiyasi esa Orolbo‘yi muammosini global ekologik kun tartibiga olib chiqib, hududni ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar zonasi sifatida belgiladi. Shuningdek, Xalqaro Sudning 2025-yilgi iqlim o‘zgarishi bo‘yicha maslahat xulosasi [12] davlatlarning ekologik va iqlim majburiyatlarini xalqaro huquq nuqtayi nazaridan qayta baholash uchun yangi ilmiy-huquqiy imkoniyatlarni yuzaga keltirdi.

Umuman, mavjud adabiyotlarda BMTning global ekologik boshqaruvdagi roli, UNEP faoliyati, institutsional fragmentatsiya va iqlim siyosatining asosiy mexanizmlari yetarlicha tadqiq etilgan. Biroq ushbu mexanizmlarning Markaziy Osiyo, xususan, O‘zbekiston sharoitida amaliy samaradorligi, BMTning Orolbo‘yi muammosini hal etishdagi muvofiqlashtiruvchi roli hamda 2025-yilgi Xalqaro Sud maslahat xulosasining mintaqaviy ekologik siyosatga ehtimoliy ta’siri kompleks tarzda yetarlicha o‘rganilmagan. Mazkur maqolada aynan ushbu ilmiy bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotning nazariy-metodologik asosini neoliberal institutsionalizm va global ekologik boshqaruv nazariyalari tashkil etadi. Tadqiqotda global ekologik boshqaruvning institutsional tuzilishi, xalqaro ekologik institutlar o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik va institutsional fragmentatsiya jarayonlari tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv, tarixiy-xronologik, hujjatli tahlil, qiyosiy-tahliliy va keys-stadi metodlaridan foydalanildi. Tizimli yondashuv asosida BMTning ekologik boshqaruvdagi asosiy institutlari o‘zaro bog‘liq elementlar sifatida ko‘rib chiqildi. Tarixiy-xronologik metod orqali BMTning ekologik siyosati Stokgolm konferensiyasidan boshlab Parij kelishuvi va undan keyingi davrgacha bo‘lgan institutsional rivojlanish bosqichlari asosida o‘rganildi. Hujjatli tahlil orqali BMT rezolyutsiyalari, xalqaro konvensiyalar, kelishuvlar va Xalqaro Sudning maslahat xulosasi o‘rganilib, ularning global ekologik boshqaruvdagi o‘rni aniqlandi. Qiyosiy-tahliliy metod asosida Kioto protokoli va Parij kelishuvida shakllangan iqlim siyosati mexanizmlarining o‘ziga xos jihatlari qiyosiy o‘rganildi. Keys-stadi metodi yordamida Orolbo‘yi ekologik inqirozi misolida BMTning global ekologik mexanizmlarining mintaqaviy darajadagi amaliy ahamiyati tahlil qilindi. Shuningdek, tadqiqotda mavjud ilmiy adabiyotlar, xalqaro tashkilotlarning hisobotlari va ikkilamchi statistik ma’lumotlardan foydalanildi. Olingan natijalar asosida BMTning global ekologik boshqaruvdagi institutsional imkoniyatlari va mavjud cheklovlari umumlashtirilib, uning samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy xulosalar ishlab chiqish imkonini beradi.

Tahlil va natijalar. BMTning global ekologik siyosatdagi institutsional rivojlanishi 1972-yilgi Stokgolm konferensiyasidan boshlab izchil shakllangan. Mazkur konferensiya ekologik muammolarni xalqaro kun tartibiga olib chiqib, BMT tizimida Atrof-muhit bo‘yicha dastur – UNEP tashkil etilishiga asos yaratdi [1; 2]. Dastlab UNEP mustaqil ixtisoslashgan tashkilot emas, balki davlatlar va xalqaro institutlar o‘rtasidagi ekologik hamkorlikni muvofiqlashtiruvchi mexanizm sifatida shakllandi. Shu sababli uning asosiy ta’sir vositalari majburiy qarorlar qabul qilishdan ko‘ra ilmiy-ekspert faoliyati, kun tartibini shakllantirish va xalqaro hamkorlikni rag‘batlantirish bilan bog‘liq bo‘ldi [13; 14].

1992-yilgi Rio-de-Janeyro konferensiyasi BMTning ekologik boshqaruv tizimini yangi bosqichga olib chiqib, barqaror rivojlanish va ekologik mas’uliyatning umumiy tamoyillarini mustahkamladi [3]. Keyingi davrda Iqlim o‘zgarishi bo‘yicha doiraviy konvensiya, Biologik xilma-xillik to‘g‘risidagi konvensiya, Cho‘llanishga qarshi kurash konvensiyasi hamda Kioto protokoli kabi xalqaro hujjatlarning shakllanishi global ekologik boshqaruvning normativ-huquqiy bazasini kengaytirdi [4;

5; 6]. 2012-yilgi Rio+20 konferensiyasidan keyin UNEPning institutsional mavqei kuchaytirilib, uning BMT Atrof-muhit Assambleyasi (UNEA) orqali universal a’zolik asosidagi boshqaruv mexanizmi rivojlantirildi [8]. Bu jarayon ekologik boshqaruvda davlatlarning kengroq ishtirokini ta’minlash bilan birga, xalqaro ekologik institutlar sonining ko‘payishiga ham olib keldi.

2015-yilgi Parij kelishuvi va 2030-yilgacha mo‘ljallangan Barqaror rivojlanish maqsadlarining qabul qilinishi BMT ekologik siyosatida yangi boshqaruv modelini shakllantirdi [7; 9]. Kioto protokolida rivojlangan davlatlar uchun belgilangan miqdoriy majburiyatlarga asoslangan yuqoridan-pastga yondashuv ustun bo‘lgan bo‘lsa, Parij kelishuvi barcha davlatlarning milliy darajada belgilanadigan hissalari (NDC) va ularni bosqichma-bosqich kuchaytirish tamoyiliga asoslandi [6; 20; 21]. Shu jihatdan Parij modeli xalqaro ishtirokni kengaytirgan bo‘lsa-da, davlatlarning milliy majburiyatlari yetarli darajada ambitsiyali bo‘lmasligi uning asosiy muammolaridan biri bo‘lib qolmoqda [22; 24].

BMTning global ekologik boshqaruvidagi muhim muammolardan biri institutsional fragmentatsiya hisoblanadi. Hozirgi xalqaro ekologik tizim yuzlab ko‘p tomonlama ekologik kelishuvlar, tashkilotlar va institutsional mexanizmlardan tashkil topgan bo‘lib, ular o‘rtasidagi vakolatlar va faoliyat yo‘nalishlarining kesishishi boshqaruv samaradorligiga ta’sir ko‘rsatadi [16; 17]. Ayrim tadqiqotchilar mazkur holatni “rejimlar kompleksi” sifatida izohlab, ekologik muammolarning alohida yo‘nalishlar bo‘yicha tartibga solinishi xalqaro hamkorlikda institutsional takrorlanish va muvofiqlashtirish muammolarini yuzaga keltirishini ta’kidlaydi [18]. Shu bilan birga, fragmentatsiyani faqat salbiy hodisa sifatida baholash to‘g‘ri emas. TUrli xalqaro institutlar va nodavlat subyektlarning ishtiroki ekologik siyosatning moslashuvchanligi va innovatsion imkoniyatlarini kengaytirishi mumkin [19; 23]. Demak, BMT oldidagi asosiy vazifa fragmentatsiyani butunlay bartaraf etish emas, balki mavjud institutlar o‘rtasidagi sinergiyani kuchaytirishdan iborat.

BMTning ekologik boshqaruvdagi institutsional salohiyatini baholashda UNEPning moliyaviy va huquqiy imkoniyatlari alohida ahamiyatga ega. Tashkilot faoliyatining katta qismi ixtiyoriy moliyaviy badallarga bog‘liqligi uning uzoq muddatli va mustaqil siyosiy rejalashtirish imkoniyatlarini cheklaydi [13; 14]. Shu bilan birga, UNEPning xalqaro ekologik siyosatni shakllantirishdagi roli faqat moliyaviy yoki huquqiy vakolatlar bilan belgilanmaydi. Ilmiy bilimlarni siyosiy qarorlar jarayoniga olib kirish, davlatlarning salohiyatini oshirish va ekologik masalalarni xalqaro kun tartibida ushlab turish uning muhim funksiyalaridan hisoblanadi [14; 15]. Shunday qilib, UNEPning kuchli jihati ekspertlik va muvofiqlashtirish salohiyatida, asosiy cheklovi esa mustaqil moliyaviy va majburiy huquqiy instrumentlarning yetarli emasligida namoyon bo‘ladi.

2030-yilgacha mo‘ljallangan Barqaror rivojlanish maqsadlari ekologik siyosatni yagona global maqsadlar tizimiga integratsiya qilishga xizmat qilmoqda. Xususan, 6, 7, 12, 13, 14 va 15-maqsadlar suv resurslari, energiya, mas’uliyatli iste’mol va ishlab chiqarish, iqlim o‘zgarishi, dengiz ekotizimlari hamda quruqlikdagi ekotizimlarni muhofaza qilishga qaratilgan [9]. Biroq BRMlar huquqiy jihatdan majburiy bo‘lmaganligi sababli ularning bajarilishi asosan milliy strategiyalar, monitoring va hisobot mexanizmlariga bog‘liq. Shu sababli xalqaro ekologik boshqaruvda umumiy maqsadlarning mavjudligi muhim bo‘lsa-da, ularni amalga oshirish uchun kuchliroq hisobdorlik mexanizmlarini rivojlantirish zarurdir.

Ekologik masalalarning inson huquqlari bilan bog‘lanishi BMTning global ekologik siyosatida huquqiy legitimatsiya jarayonini kuchaytirmoqda. 2022-yilda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan xavfsiz, toza, sog‘lom va barqaror atrof-muhitga bo‘lgan huquqning tan olinishi ekologik muammolarni inson huquqlari kun tartibi bilan yanada yaqinlashtirdi [11]. 2025-yilda Xalqaro Sudning iqlim o‘zgarishi bo‘yicha maslahat xulosasi esa davlatlarning iqlim tizimini muhofaza qilish borasidagi xalqaro-huquqiy majburiyatlarini yanada aniqlashtirishga xizmat qilgan muhim huquqiy rivojlanish sifatida baholanishi mumkin [12]. Natijada BMT ekologik boshqaruvida siyosiy kelishuvlar, xalqaro huquqiy normalar va inson huquqlari mexanizmlarining o‘zaro bog‘liqligi kuchayib bormoqda.

BMTning global ekologik mexanizmlarining mintaqaviy darajadagi amaliy ahamiyatini Orolbo‘yi ekologik inqirozi misolida yaqqol ko‘rish mumkin. Orol dengizining qisqarishi, sho‘rlanish, chang-tuz bo‘ronlari va ularning aholi salomatligi hamda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ta’siri Orolbo‘yini xalqaro ekologik va inson xavfsizligi kun tartibining muhim masalalaridan biriga aylantirdi. BMT tomonidan Orolbo‘yi hududidagi ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy muammolarni kompleks hal etishga qaratilgan mexanizmlarning shakllantirilishi ushbu muammoning xalqaro darajada institutsional e’tirof etilganini ko‘rsatadi. Xususan, 2021-yilda BMT Bosh Assambleyasining A/RES/75/278-rezolyutsiyasi bilan Orolbo‘yi mintaqasi “ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar zonasi” deb e’lon qilindi. Mazkur tashabbus ekologik innovatsiyalar, suv va energiya tejamkor texnologiyalarni rivojlantirish hamda mintaqaviy hamkorlikni kuchaytirishga qaratilgan. Umuman olganda, ushbu natijalar BMTning global ekologik boshqaruvdagi asosiy funksiyasi majburiy ijroni ta’minlashdan ko‘ra xalqaro ekologik kun tartibini shakllantirish, davlatlar o‘rtasidagi hamkorlikni muvofiqlashtirish, umumiy normativ-huquqiy mezonlarni ishlab chiqish va ilmiy ekspertizani siyosiy qarorlar jarayoniga integratsiya qilishdan iborat ekanini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, institutsional fragmentatsiya, moliyaviy cheklovlar, majburiy ijro mexanizmlarining zaifligi va davlatlarning siyosiy manfaatlari o‘rtasidagi tafovutlar BMT ekologik siyosatining samaradorligini cheklovchi asosiy omillar bo‘lib qolmoqda [15; 16; 18]. Orolbo‘yi tajribasi esa BMTning xalqaro mexanizmlari milliy tashabbuslar, mintaqaviy hamkorlik va maqsadli moliyaviy instrumentlar bilan uyg‘unlashganda yanada samarali natija berishini ko‘rsatadi.

Xulosa va takliflar. Tadqiqot natijalari BMTning global ekologik siyosatdagi rolini institutsional rivojlanish, mavjud cheklovlar va yangi imkoniyatlar nuqtayi nazaridan baholash imkonini berdi. Tahlillar asosida quyidagi xulosalarga kelindi.

Birinchidan, BMT global ekologik boshqaruvning asosiy xalqaro muvofiqlashtiruvchi platformasi bo‘lib qolmoqda. Stokgolm konferensiyasidan Parij kelishuvigacha bo‘lgan davrda ekologik muammolarni xalqaro kun tartibiga olib chiqish, umumiy normalar va institutlarni shakllantirishda BMT tizimi muhim rol o‘ynadi. Biroq uning ta’siri asosan majbUrlash vositalari orqali emas, balki ilmiy ekspertiza, xalqaro kun tartibini shakllantirish va davlatlar o‘rtasidagi muzokaralarni muvofiqlashtirish orqali amalga oshiriladi.

Ikkinchidan, BMTning global ekologik boshqaruv tizimidagi asosiy cheklovlar moliyaviy barqarorlikning yetarli emasligi, majburiy ijro mexanizmlarining cheklanganligi va institutsional fragmentatsiya bilan bog‘liqdir. UNEPning ixtiyoriy moliyaviy badallarga sezilarli darajada bog‘liqligi, xalqaro ekologik kelishuvlarning ko‘pligi va ular o‘rtasidagi muvofiqlashtirish muammolari, shuningdek, Parij kelishuvi doirasida davlatlarning iqlim majburiyatlari yetarli darajada ambitsiyali emasligi global ekologik boshqaruv samaradorligiga ta’sir ko‘rsatmoqda.

Uchinchidan, so‘nggi yillarda BMT tizimida ekologik siyosatni huquqiy jihatdan mustahkamlash uchun yangi imkoniyatlar shakllandi. Toza, sog‘lom va barqaror atrof-muhitga bo‘lgan huquqning tan olinishi hamda Xalqaro Sudning 2025-yildagi iqlim o‘zgarishi bo‘yicha maslahat xulosasi ekologik muammolarni inson huquqlari va xalqaro huquqiy javobgarlik bilan yanada uzviy bog‘lash uchun muhim asos yaratmoqda.

To‘rtinchidan, Orolbo‘yi tajribasi BMT mexanizmlarining milliy tashabbuslar va mintaqaviy hamkorlik bilan uyg‘unlashuvi xalqaro ekologik muammolarni global kun tartibiga olib chiqish hamda xalqaro resurslarni jalb etishda samarali bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatdi. Mazkur tajriba O‘zbekiston uchun BMT ekologik diplomatiyasi va xalqaro ekologik hamkorlik mexanizmlaridan foydalanishning muhim amaliy modeli hisoblanadi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, BMTning global ekologik boshqaruvdagi samaradorligini oshirish uchun bir qator institutsional va amaliy choralarni amalga oshirish maqsadga muvofiq. Avvalo, UNEPni moliyalashtirish tizimini takomillashtirish, moliyaviy manbalarni diversifikatsiya qilish va a’zo davlatlarning barqaror moliyaviy ishtirokini kuchaytirish zarur. Shuningdek, xalqaro ekologik konvensiyalar o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish, takroriy funksiyalarni qisqartirish va institutsional muvofiqlikni ta’minlash muhimdir. Xalqaro Sudning 2025-yilgi maslahat xulosasidan kelib chiqadigan huquqiy yondashuvlarni iqlim siyosatini ishlab chiqish jarayonlariga integratsiya qilish, global inventarizatsiya mexanizmini takomillashtirish hamda davlatlarning milliy iqlim majburiyatlari va ilmiy asoslangan ekologik talablar o‘rtasidagi tafovutni muntazam baholab borish lozim. Shu bilan birga, shaharlar, hududlar, biznes va fuqarolik jamiyati kabi nodavlat subyektlarning ekologik tashabbuslarini xalqaro monitoring tizimlariga kengroq integratsiya qilish maqsadga muvofiq.

ADABIYOTLAR

1. Declaration of the United Nations Conference on the Human Environment (Stockholm Declaration). 1972. Url: https://www.un.org/en/conferences/environment/stockholm1972
2. UN General Assembly. Resolution 2997 (XXVII): Institutional and financial arrangements for international environmental cooperation. 1972. Url: https://docs.un.org/en/A/RES/2997(XXVII)
3. Rio Declaration on Environment and Development. 1992. Url: https://www.un.org/esa/documents/rio-declaration
4. United Nations Framework Convention on Climate Change. 1992. Url: https://unfccc.int/resource/docs/convkp/conveng.
5. Convention on Biological Diversity. 1992. Url: https://www.cbd.int/convention/text/
6. Kyoto Protocol to the United Nations Framework Convention on Climate Change. 1997. Url: https://unfccc.int/kyoto_protocol
7. Paris Agreement. 2015. Url: https://unfccc.int/sites/default/files/english_paris_agreement.
8. UN General Assembly. A/RES/66/288: The Future We Want. 2012. Url: https://docs.un.org/en/A/RES/66/288
9. UN General Assembly. A/RES/70/1: Transforming our world: the 2030 Agenda for Sustainable Development. 2015. Url: https://docs.un.org/en/A/RES/70/1
10. Kunming-Montreal Global Biodiversity Framework (CBD/COP/DEC/15/4). 2022. URL: https://www.cbd.int/gbf
11. UN General Assembly. A/RES/76/300: The human right to a clean, healthy and sustainable environment. 2022. Url: https://docs.un.org/en/A/RES/76/300
12. International Court of Justice. Obligations of States in respect of Climate Change. Advisory Opinion. 23 July 2025. Url: https://www.icj-cij.org/case/187
13. Иванова М. ЮНЕП в глобальном экологическом управлении: дизайн, лидерство и местоположение // Global Environmental Politics. 2010. Т. 10, № 1. – С. 30-59.
14. Иванова М. Нерасказанная история ведущего мирового экологического института: ЮНЕП в пятидесятилетней перспективе. – MIT Press, 2021.
15. Biermann F., Bauer S. Assessing the effectiveness of intergovernmental organisations in international environmental politics // Global Environmental Change. 2004. Vol. 14, No. 2. – P. 189-193.
16. Biermann F., Pattberg P., van Asselt H., Zelli F. The fragmentation of global governance architectures: A framework for analysis // Global Environmental Politics. 2009. Vol. 9, No. 4. – P. 14-40.
17. Zelli F., van Asselt H. The institutional fragmentation of global environmental governance: Causes, consequences, and responses // Global Environmental Politics. 2013. Vol. 13, No. 3. – P. 1-13.
18. 16. Кеохейн Р. О., Виктор Д. Г. Комплекс международных режимов в области изменения климата // Perspectives on Politics. 2011. Т. 9, № 1. – С. 7-23.
19. Abbott K. W. The transnational regime complex for climate change // Environment and Planning C: Government and Policy. 2012. Vol. 30, No. 4. – P. 571-590.
20. Falkner R. The Paris Agreement and the new logic of international climate politics // International Affairs. 2016. Vol. 92, No. 5. – P. 1107-1125.
21. Bodansky D. The legal character of the Paris Agreement // Review of European, Comparative & International Environmental Law. 2016. Vol. 25, No. 2. – P. 142-150.
22. Димитров Р. С. Парижское соглашение об изменении климата: за закрытыми дверями // Global Environmental Politics. 2016. Т. 16, № 3. – С. 1-11.
23. Hale T. “All hands on deck”: The Paris Agreement and nonstate climate action // Global Environmental Politics. 2016. Vol. 16, No. 3. – P. 12-22.
24. Rogelj J., et al. Paris Agreement climate proposals need a boost to keep warming well below 2 °C // Nature. 2016. Vol. 534. – P. 631-639.
25. Rockström J., et al. A safe operating space for humanity // Nature. 2009. Vol. 461. – P. 472-475.
26. Biermann F., Kanie N., Kim R. E. Global governance by goal-setting: The novel approach of the UN Sustainable Development Goals // Current Opinion in Environmental Sustainability. 2017. Vol. 26–27. – P. 26-31.
27. Kim R. E., Bosselmann K. International environmental law in the Anthropocene: Towards a purposive system of multilateral environmental agreements // Transnational Environmental Law. 2013. Vol. 2, No. 2. – P. 285-309.
28. Micklin P. The Aral Sea disaster // Annual Review of Earth and Planetary Sciences. 2007. Vol. 35. – P. 47-72.
29. UN General Assembly. A/RES/75/278: Declaring the Aral Sea region a zone of ecological innovations and technologies. 2021.